MAJLIS BAYONI -

"Tasdiqlayman"
"O'zmilliybank" AJ
"Toshkent shahar
Bosh boshqarmasi"
boshlig'i

G.Abidov

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'i boshchiligida o'tkazilgan iqtisodiy o'quv seminar yig'ilishining

BAYONI

Toshkent shahri **№** **2026 yil 8 yanvar**

Majlis Raisi: "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'i G.Abidov

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosarlari: U.Fattoxov, U.Abdimajidov, E.Raxmatov.

Bosh boshqarmaning barcha tarkibiy tuzilma rahbarlari

Bosh boshqarma tasarrufidagi bank xizmatlari markazlari/ofislari boshqaruvchilari.

K U N T A R T I B I:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda "Mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasida belgilangan tegishli vazifalar yuzasidan

So'zga chiqdilar: (G.Abidov, U.Fattoxov U.Abdimajidov, E.Raxmatov, G.Abidov)

www.nbu.uz

MAJLIS BAYONI -

Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'i G.Abidov majlisni ochib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma orqali o'tgan yillar davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, kelgusi yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar, shuningdek ichki va tashqi siyosat bo'yicha asosiy vazifalar belgilab olinganligi shuningdek "Mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasida belgilangan tegishli masalalar bilan yig'ilish qatnashchilarini tanishtirib o'tdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi murojaatnomasida 2026 yilni yurtimizda **"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"** deb e'lon qilinganligi, kelgusi yilda mahalla faoliyatini tubdan isloh qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirish kerakligi belgilab berilganligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz o'z murojaatlarida bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar, davlatlar o'rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali bir vaziyatda sizlar bilan o'ta murakkab yilni yakunlayotganligimizni, qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati, hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz; odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz, tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025 yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishganligimizni ta'kidlab o'tdilar.

Avvalo, jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etayotganini qayd etish lozim.

Bu natijalar dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz Yalpi ichki maxsuloti 2025 yilda tariximizda birinchi marta 145 milliard dollardan oshdi, iqtisodiyotimizga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi.

Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo'lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini

unutmaslik lozim. Agar biz sanoatda – elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish; xizmatlarda – IT, sun'iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni ko'paytirish; qishloq xo'jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg'or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo'llash; iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun "yashil" energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish; ta'lim va tibbiyotda – sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari U.Fattoxov so'zga chiqib, shuningdek "Mamlakatning 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni loyihasida belgilangan tegishli masalalar yuzasidan O'zmilliybankning Toshkent shahar Bosh Boshqarmasida 2026 yilda bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq va rejalari qisqacha tanishtirib o'tdi.

Jumladan, Davlat rahbari tomonidan murojaatnomada 2026 yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da har bir mahallada 40 tadan mikroloyihani amalga oshirib, 360 ming aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga 2026 yilda yana 7,5 trillion so'm resurs ajratilishi belgilanganligi ta'kidlandi. 2026 yilda ham mahallada fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatimizni davom ettirib, mahalla bankirlari orqali dasturlar doirasida istiqbolli loyihalarni tanlab ularga imtiyozli kreditlar ajratish, fuqarolar turmush sharoitini yaxshilashda qulay foizlarda bank kreditlarini taklif etish yo'li bilan mahalla va jamiyat rivoji uchun o'z hissamizni qo'shamiz.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14-fevraldagi Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-61-son qarori asosida o'z biznes g'oyalarini amalga oshirish istagi bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchi bosqich talabalari va oliygohni tamomlaganiga 3 yildan oshmagan bitiruvchilar uchun Dasturda ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan biznes g'oyani tayyor loyihagacha olib borish jarayonida to'liq hamrohlik qilish, shu jumladan qulay shartlarda moliyalashtirish bilan "Kelajakka qadam" dasturini amalga oshirish ishlari izchil tarzda davom ettiriladi.

MAJLIS BAYONI -

Yig'ilishda bankning 2025-yil davomida "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahar Bosh boshqarmasi rahbari o'rinbosarlarining mo'ljallangan ish-rejalarining bajarilishi holati muhokama qilindi.

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Boshqarma boshliqlari hamda Boshqarma tasarrufidagi BXM/BXO boshliqlariga "murojaatnoma"da keltirib o'tilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalar muhokamasi bo'yicha tegishli xulosa va takliflarni hisobga olgan holda Bosh boshqarma

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida berilgan topshiriqlar Bosh boshqarmasi va bankning barcha tarkibiy tuzilmalarida ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida berilgan topshiriqlar, kelgusidagi asosiy vazifalar hamda Bosh boshqarma yig'ilishi topshiriqlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin hamda ijrosi doimiy nazoratga olinsin.

3. "O'zmilliybank" AJ Boshqaruv raisi birinchi o'rinbosari S.Usmanbekovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida tegishli vazifalar muhokamasini tashkil etishga oid topshirig'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mas'ul tarkibiy tuzilmalar Murojaatnomada berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, Boshqarma boshlig'i va boshliq o'rinbosarlarining hamda o'z tarkibiy tuzilmalarining 2026 yildagi ish-rejalarni ishlab chiqish choralarini ko'rsin.

5. Markaziy bankning 2025-yil 14-yanvardagi 2-sonli bayoni va 18-yanvardagi "Markaziy bank tizimida 2024-yilda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablarining ijrosi haqida"gi 1/6-sonli qaroridagi topshiriqlar hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya etib borilishi davom ettirilsin.

6. Bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilmalar, Bosh boshqarma tasarrufidagi BXM/BXO rahbarlari o'zlariga tegishli masalalarni amaldagi qonunchilik xujjatlarida belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlash ishlari ustidan nazoratni kuchaytirsin;

7. Bosh boshqarma Ijro intizomi nazorati, tashqi savdo shartnomalari

www.nbu.uz

monitoringi boshqarmasi (Sh.Alimuxamedov) majlis bayonida berilgan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish, Davlat dasturlari bilan ishlash boshqarmasi (A.Gapurov) dasturlar doirasida ishlarni tashkil etish, Axborot texnologiyalari boshqarmasi (A.Kadiyev) BXM/BXOlar moddiy texnik baza bilan ta'minlash vazifasi yuklatilsin

8. Mazkur qarorda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib joylardagi BXM/BXO rahbarlari zimmasiga, qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda qarorda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish Bosh boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari U.Fattoxov, boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (U.Abdimajidov, E.Raxmatov), zimmalariga yuklatilsin, umumiy nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosari **U. Abdimajidov**

J. Xalilov

F. Tashbekov

B. Mirxonov

A.Marufxodjayev

A. Gapurov

D.Maxkamov

A. Kadiyev

A. Taxirov

D.Kamilov

B.Ablabekov

X.Valiyev

N.Mo'minov